


SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024-YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)





**Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 2939 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 418 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 14,2 % i) Termiz shahriga, 362 tasi (12,3 %) Denov tumaniga, 249 tasi (8,5 %) Sho'rchi tumaniga, 224 tasi (7,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga va 200 tasi (6,8 %) Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan




Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14 888,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



* Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (9123,0 ming so'm) Bandixon tumanida (7104,5 ming so'm), hamda Termiz tumanida (6215,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5114,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



* Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13515,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Termiz shahri (12,5 %), Denov tumani (9,6 %), Jarqo'rg'on tumani (9,2 %), Sho'rchi tumani (7,1 %) hamda Sherobod tumani (6,7 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Angor (118,3 %), Bandixon (114,8 %) hamda Sariosiyo (110,4 %) tumanlarida kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 494,5 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 3,2 % ga to'g'ri keldi.



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



Yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	352,2	900,2	548,0
Neft, ming t.	79,1	70,1	- 9,0
Qattiq tuz, ming t.	23,2	22,5	- 0,7
Chaqiq tosh, ming t.	39,0	77,0	3,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13515,9 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.




90,9 %

*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




* Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,0 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,1 % (23,0 %), quyi texnologiyali 72,0 % (64,9 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,7 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 16,8 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi – 11,9 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,4 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish – 12,0 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,9 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ulushi – 2,2 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,9 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 69,9 ming l 100%li spirt aroq (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 21,0 % ga kamaygan), 110,8 ming l uzum vinosi (16,7 % kamaygan), paxta tolasi 23,1 ming t (75,7 % ga ko'paygan) hamda 32,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (34,6 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Aroq, ming l 100%li spirt	127,9	114,5	-13,4
Uzum vinosi ,ming l	159,7	110,8	- 48,9
Paxta tiviti, tonna	3587,0	2502,5	-1084,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	56,2	45,1	-11,1
Paxta tolasi, ming t.	22,4	37,9	15,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 213,5 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 287,0 mlrd so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1771,5 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,3 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2248,9 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 137,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 249,1 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 37,5 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 5580,9 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 468,7 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 193,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 44,5 mlrd so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.



2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 78,9 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 332,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 675,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 149,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt.s	428,3	638,7	210,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	22,9	22,9	0,0
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	4,6	4,6

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 203,1 mlrdso'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 46,7 % ga , oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 79,4 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrdso'm	4,5	8,0	3,5


Suvga ishlov berish va suv quvurlari boyicha taqsimlash boyicha xizmatlar-mlrdso'm

64,4

94,5

30,1

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9652,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 64,8 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,1 % ni tashkil etgan.


yanvar-dekabr
mlrds'o'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi



yanvar-dekabr
ulushi, % da



Bandixon	100,0
597,7	
Muzrabot	98,2
592,6	
Oltinsoy	98,0
350,9	
Boysun	91,6
211,7	
Termiz	79,5
424,4	
Sherobod	75,0
747,7	
Sho'rchi	73,8
780,4	
Uzun	71,2
293,9	
Termiz sh.	66,5
1241,3	
Angor	61,7
395,4	
Denov	56,6
811,5	
Jarqo'rg'on	34,0
465,3	
Qumqo'rg'on	28,7
260,2	
Sariosiyo	28,0
263,0	
Qiziriq	28,0
117,1	

● mlrd so'mda

● Ulushi, % da

* Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 42 ta loyiha bo'yicha 303,1 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu bilan birga 143 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

